

Uzbekistan Airways Express qo'l yukining yangi miqdori

2024 7 Iyun

Uzbekistan Airways Express aviaqatnovlari uchun bepul qo'l yukini tashish me'yorini oshiramiz! Endilikda siz oldingi 5 kg o'rniga 8 kg qo'l yuki bilan sayohat qilishingiz mumkin.

Ushbu aviaqatnovlarda bagajni tashish shartlari o'zgarmagan va bagajni tashish huquqiga ega tariflar bo'yicha aviachipta xarid qilgan yo'lovchilar uchun 1 ta joyga ruxsat beriladi:

- Kattalar va 2 yoshdan katta bo'lgan bolalar uchun – 23 kg dan oshmasligi kerak (158 sm);
- 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun – 5 kg dan oshmasligi kerak (115 sm).

Bepul bagajni tashish me'yorlari haqida ma'lumotni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com saytining "Muhim ma'lumot" bo'limida olishingiz mumkin.